



**FARG'ONA VILOYAT  
STATISTIKA BOSHQARMASI**

**FARG'ONA VILOYATIDA  
QURILISH ISHLARI**

**2022-yil yanvar**

## 2022-yil yanvar oyi uchun Farg'ona viloyatida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar oyda,  
Farg'ona viloyatida jami  
480,6 mlrd. so'mlik qurilish ishlari  
bajarilib, o'sish sur'ati 2021-yilning  
yanvar oylariga nisbatan 106,5 %ni  
tashkil etdi.




### Qurilish ishlari hajmining tarkibi, %da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish  
tashkilotlari, kichik korxona  
va mikrofirmalar hamda norasmiy  
sektorlarda amalga oshirilgan ishlar  
tarkibi bo'yicha shakllanadi.




Amalga oshirilgan qurilish ishlari  
mulkchilik shakli, davlat va nodavlat  
bo'lgan korxona va tashkilotlar tarkibi  
bo'yicha bo'linadi.

**Ma'lumot uchun:** qurilish ishlari hajmi  
bu — o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish  
ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy  
ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish  
ishlari natijasidir.



## 2022-yil 1-fevral holatiga ko‘ra qurilish ishlari bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o‘sishiga o‘zining munosib hissasini qo‘shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 2021-yilning mos davri bilan solishtirganda o‘sish sur’ati 108,7% foizga oshgan (285 birlik).



Qurilish sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni ushbu sohaning quyidagi yo‘nalishlari kesimida qaraganda:

Binolar va inshootlar qurish yo‘nalishi 55,6 foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 109,2 foizga oshgan (166 birlik);

Fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishi 10,6 foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 109,0 foizga oshgan (31 birlik);


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishi 33,8 foiz ulushni va 107,9 foiz o‘sish sur’atini tashkil etdi (88 birlik).



## Hududlar kesimida qurilish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar, birlik

	holatiga:		o‘tgan yilga nisbatan, %da
	01.02.2021-y.	01.02.2022-y.	
Farg‘ona viloyati	3 270	3 555	108,7
Farg‘ona sh.	879	965	109,8
Qo‘qon sh.	322	345	107,1
Quvasoy sh.	118	130	110,2
Marg‘ilon sh.	344	332	96,5
Oltiariq	113	119	105,3
Qo‘shtepa	102	102	100,0
Bag‘dod	157	158	100,6
Buvayda	133	137	103,0
Beshariq	83	93	112,0
Quva	141	143	101,4
Uchko‘prik	175	198	113,1
Rishton	71	88	123,9
So‘x	43	78	181,4
Toshloq	132	132	100,0
O‘zbekiston	87	97	111,5
Farg‘ona	97	122	125,8
Dang‘ara	123	138	112,2
Furqat	74	82	110,8
Yozyovon	76	96	126,3

**2022-yil 1-fevral holatiga ko'ra Farg'onan viloyatida faoliyat  
ko'rsatayotgan qurilish korxonalarini ulushi, %da**



Joriy yilning yanvar oyiga, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 40,0 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2021-yilning yanvar oyiga nisbatan 5,6 marta tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2021-yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan 457,7 % punktga ko'payib, 8,1 %ni tashkil etdi.

**2022-yil yanvar oyda  
yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan  
qurilish ishlari**



***Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlaringning jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Farg'ona shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 30,8 %i yoki 2021-yilning yanvar oyiga nisbatan 17,4 foizga ko'p), Marg'ilon shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 12,7 %i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,3 marta ko'paydi) va Bag'dod tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 11,0 %i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 84,6 usish sur'ati)ga to'g'ri keldi.***



## Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

2022-yilning yanvar oyiga kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 67,6 %i to‘g‘ri kelib, 2021-yilning yanvar oyiga ko‘rsatkichiga nisbatan 2,3 foizga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021-yilning mos davriga nisbatan 100,3 %ni tashkil etgan holda 324,7 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi.

### Kichik korxona va mikrofirmalar, ulushi, %da

**69,9**  
2021-yil  
yanvar

**67,6**  
2022-yil  
yanvar



*Ma’lumot uchun: joriy hisobot davrida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko‘rsatkichi Farg‘ona tumani (0,3 mlrd. so‘m yoki umumiy hajmga nisbatan 42,4 marta ko‘paydi), Quva tumani (1,0 mlrd. so‘m yoki 2,5 marta ko‘paydi), Yozyovon tumani (1,5 mlrd. so‘m yoki 187,6 %) va Furqat tumani (3,6 mlrd. so‘m yoki 155,1 %) to‘g‘ri keldi.*


## **Qurilish ishlarining umumiyl hajmida norasmiy sektor**

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi 24,3 %ni tashkil etdi yoki 116,9 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2021-yilning yanvar oyga nisbatan 97,8 %ni tashkil etdi.



### **Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari**

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 9,8 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan esa 470,8 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda 2,0 % va 98,0 %ni tashkil etdi.



**2022-yil yanvar oydag'i  
Farg'ona viloyatida qurilish ishlari**

## Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

### 2022-yil yanvar oyda

Bajarilgan qurilish ishlaringning katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlaringning 66,4 %i yoki 319,3 mlrd. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan 36,5 mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 11,4 %ni tashkil etdi.



Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 103,8 mlrd. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 32,6 %ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan 179,0 mlrd. soʻm yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 56,0 %ni tashkil etdi.


## Hududlar kesimida qurilish ishlari 2022-yil yanvar oyda

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, %da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya va qayta qurollantirish (mlrd. so'm)
Farg'onha viloyati	480,6	106,5	319,3
Farg'onha sh.	148,0	117,4	109,8
Qo'qon sh.	38,5	92,8	20,5
Quvasoy sh.	11,5	62,7	7,2
Marg'ilon sh.	60,9	230,3	42,0
<i>tumanlar:</i>			0,0
Oltiariq	13,6	107,1	8,9
Qo'shstepta	26,6	83,0	14,6
Bag'dod	52,7	84,6	30,9
Buvayda	13,1	67,2	8,4
Beshariq	9,9	98,7	7,5
Quva	8,4	71,1	7,1
Uchko'prik	11,3	148,4	6,9
Rishton	7,8	122,0	4,4
So'x	6,6	116,0	4,1
Toshloq	15,5	86,7	9,7
O'zbekiston	12,1	110,0	8,5
Farg'ona	1,3	101,1	0,9
Dang'ara	22,3	87,7	12,9
Furqat	14,8	130,6	10,7
Yozyovon	5,7	150,7	4,1

\* Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda



## Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



*Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.*

## Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 9,3 %ni tashkil etib, 2021-yilning yanvar oydagagi ko'rsatkichga nisbatan 8,4 % punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2021-yilning yanvar oydagagi ko'rsatkichga nisbatan 4,3 % punktga kamayib, 60,1 %ni tashkil etdi.

Norasmiy sektoring ulushi esa 2021-yilning yanvar oydagagi ko'rsatkichga nisbatan 4,1 % punktga kamayib, 30,6 %ni tashkil etdi.

### Ulushi, %da

Yirik qurilish tashkilotlari

Kichik korxona va mikrofirmalar

Norasmiy sektor



2022-yil yanvar oydagagi  
Farg'onada viloyatida qurilish ishlari


## Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 0,6 %ni tashkil etdi va 2021-yilning yanvar oyga nisbatan 0,7 % punktga kamaydi.


Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 99,0 % (1,9 % punktga ko'payish) hamda norasmiy sektorning ulushi 0,4 %ni tashkil etdi (1,2 % punktga kamaydi).




Ulushi, %da



Yirik qurilish tashkilotlari



2021-yil Yanvar




Norasmiy sektor

2022-yil Yanvar

Kichik korxona va mikrofirmalar


## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2021-yilning yanvar oyga nisbatan 3,3 % punktga ko'paydi va 9,2 %ni tashkil etdi. Qolgan 90,8 %i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2020-yilning yanvar oyga nisbatan 3,3 % punktga kamaydi.



2022-yil yanvar oydag'i  
Farg'onada viloyatida qurilish ishlari

## Qurilish ishlari hajmi yuqori shahar va tumanlar



Investitsiyalar va qurilish statistikasi boʼlimi

Tel.: 73 241-98-42